



“QO‘QONDAGI “G‘ISHTKO‘PRIK” MAHALLASI TARIXI VA O‘ZIGA XOSLIGI”

Hasanov Muhtorjon Qaxramonjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat universiteti talabasi

muhtorjonhasanov04@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qo‘qon shahridagi G‘ishtko‘prik mahallasi tarixi va ijtimoiy va madaniy hayoti, mahalladagi o‘ziga hos o‘zgarishlar haqida gap boradi.*

Абстрактный. *В данной статье рассказывается об истории и социальной и культурной жизни махалли кирпичный мост в городе Коканд, о специфических изменениях в махалли.*

Abstract. *This article deals with the history and social and cultural life of the neighborhood of G‘ishtko‘prik in the city of Kokand, as well as the changes in the neighborhood itself.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon, G‘ishtko‘prik, mahalla, Muhammad Alixon, ko‘cha, Milliy hammom, Guldasta.*

Ключевые слова: *Коканд, кирпичный мост, Махалля, Мухаммад Алихон, Улица, Национальная баня, Гульдаста.*

Key words: *Kokand, G‘ishtko‘prik, Neighborhood, Muhammad Alixon, Street, National Hammam, Guldasta.*

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda mahalla tizimiga qaratilayotgan islohotlar juda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Mahalla tizimi O‘zbekistonning ijtimoiy va siyosiy tuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, aholining kundalik hayotida, ijtimoiy yordam, ta’lim, sog‘liqi saqlash va xavfsizlik kabi sohalarda katta o‘rin tutadi. Shu sababli, mahallalar tizimini modernizatsiya qilish va isloh qilishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mahalla tizimidagi islohotlar nafaqat mahallalarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga, balki O‘zbekistonning umumiy taraqqiyotiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Islohotlarning asosiy yo‘nalishlari – ijtimoiy himoya, xavfsizlik, raqamlashtirish va iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu tariqa, mahalla tizimi yanada samarali va barqaror bo‘lishi kutilmoqda, bu esa aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning: “Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birligida tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘srimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta zamini” [1], deb ta’kidlaganlari ham bejizga emasligini ko‘rib



o‘tishimiz mumkin. Sababi mahallalar xalqning dardini yengil qilayotgan, fuqarolarning ishonchli makoniga aylanmoqda.

ASOSIY QISM

G‘ishtko‘prik mahallasi Qo‘qon shahrining tarixiy va madaniy boyligini o‘zida mujassam etgan hududlardan biridir. Mahalla o‘zining tarixiy obidalari, ijtimoiy faolligi va aholisining bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbati bilan ajralib turadi. O‘zgarishlar va yangilanishlar davomida G‘ishtko‘prik mahallasi nafaqat o‘zining tarixiy merosini saqlab qolmoqda, balki zamonaviy talablarga javob beradigan shahar qismiga aylanishi ham kutilmoqda.

Ushbu mahalla 1826-yilgacha Beshariq nomi bilan atalgan. Hozirgi Beshariq tumanining markazidan kelib chiqqan emas. XVIII asrning boshlarida Ulkansoydan chiqarilgan Shaldiramoq arig‘i ushbu hududga kelib, besh qismga bo‘linib ketgan. Shuning uchun bu joylarni Beshariq deb atalgan.

1826-yilda Qo‘qon xonligining yirik arbobi Muhammal Alixonning maxsus topshiriqlarini bajaruvchi Xoja Dodhox nomi bilan mashhur bo‘lgan Bahodirxoja Orifxoja o‘g‘li o‘z mol-mulkidan savobli tarzda Ulkansoy ustidagi eski ko‘prikni butunlay olib tashlab, yangisini qurdirgan. Bu ko‘prik o‘z zamonining eng mukammal muhandislik inshootlaridan biri bo‘lgan. Ko‘prikning asosi va qulayligi suvga chidamli maxsus pishirilgan g‘ishtdan qurilgan 6 ta arkdan iborat bo‘lib, suv shu arklardan oqib o‘tgan. Yuza qismining ham rishta bilan qoplangan edi. To‘rt tomonidan to‘rt minora ko‘tarilgan. Ko‘prik ustiga g‘ishtdan ko‘tarilgan to‘rt do‘kon va mavsumiy yengil do‘konlar qo‘yilgan, bu inshoot faqat ko‘prik emas, balki savdo rastasi sifatida ham xizmat qilgan. Rasta usti yopilgan. Ko‘prikning yon tomonlarida xon tegirmoni va objuvosi bo‘lgan.

Qo‘qonning Ruslar tomonidan zabit etilishi vaqtida ko‘prikning rastalari va tomi yonib ketgan. Qayta yopilgan tom 1918-yil voqealarida yana yonib ketgan. 1936-yilga kelib, butunlay ko‘prik olib tashlangan va uning o‘rniga zamonaviy temir-beton ko‘prik qurilgan. Ko‘prik buzib tashlansa-da, uning nomi butun mahallaga atalib qoldi [2].

Hozirgi kunda mahalla takomillashib 12 ta ko‘chani qamrab olgan. Bular Jayxun ko‘chasi (eski nomi Tesha Zohidov), Orasta ko‘chasi (eski nomi Muhammadjon Qoriyev), Chust ko‘chasi (eski nomi Chustiy), Namangan ko‘chasi, Xoja Dodxoh ko‘chasi, G‘alaba ko‘chasi, Yuzlar ko‘chasi, Sarboz ko‘chasi, Turkiston ko‘chasi, Istiqlol ko‘chasi, Xo‘jand ko‘chasi va Sarboz (eski nomi Sayyid Muhammad Xudoyorxon) ko‘chalarini o‘ziga jam qilgan mahalla hisoblanadi. Ushbu ko‘chalar nomlari har biri o‘ziga xos tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular nomlangan joylarning tarixi yoki muhim voqealar bilan bog‘liq.

Mahallaning nomi o‘ziga xos bo‘lib, “g‘isht” va “ko‘prik” so‘zlarining birikmasidan kelib chiqqan. Bu yerda joylashgan arxitektura obidalari, tarixiy binolar va ko‘priklar mahallaning o‘ziga xosligini yanada kuchaytiradi.

Qo‘qon shahrining mahalliy me’moriy yodgorliklaridan biri hisoblanib kelinayotgan Milliy hammom ham ushbu mahallaning Turkiston ko‘chasida joylashgan. Me’moriy obida XIX asrning birinchi o‘n yilligida bunyod etilgan.



Milliy hammom yaqinida mahalla fuqarolari uchun 2024-yilda “Guldasta” guzari qad ko‘tardi. O‘tgan asrda mahallada ushbu nom bilan guzar o‘z faoliyatini olib borgan. “U milliyligimizni timsoli edi” deydi mahalla fuqarolari. Lekin shahar markazida bo‘lganligi uchun ham mustaqillik yillarida ushbu guzar o‘rniga zamonaviy binolar tushganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Ma’lum vaqt o‘tgandan so‘ng esa mahallada davlatimiz tomonidan berilgan imkoniyat va fuqarolarimizning sa’y-harakati bilan ushbu guzar yana tiklandi. Hozirda nuroniyalar va fuqarolar uchun xizmat qilmoqda.

G‘ishtko‘prik mahallasi aholisi hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullanadi. Mahallada tibbiyot muassasasi, ta’lim muassasasi, savdo do‘konlari va oilaviy hordiq uchun ko‘ngil ochar maskanlar faoliyatlari mavjud.

Mahalla yoshlari oliy ta’lim dargohlarida tahsil olmoqdalar va o‘zlarini oldilariga ulkan reja va maqsadlar qo‘yan holda vatanga, shahar aholisi va mahallasi nufuziga hissa qo‘shish niyyatida bo‘lganliklarini yoshlar bilan suhbat davomida ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Mahalla yoshlaridan ko‘pchiligi sport yo‘nalishlarida O‘zbekiston va Jaxon chempionlari bo‘lganliklari ham taqsinga sazovordir.

Mahalla aholisining jamoaviy hayoti o‘ziga xos va do‘stona. Mahallada ko‘plab ijtimoiy tadbirlar va xalq an‘analari davom ettirilmoqda. O‘zbek milliy urf-odatlari, mehmondo‘stlik va bir-biriga yordam berish kabi qadriyatlar mahallaning kundalik hayotining ajralmas qismiga aylangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, mahalla o‘zining tarixi va ijtimoiy hayotda shahar mahallari qatorida muhim o‘rinni egallaydi. Mahallaning turli tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va yoshlarni madaniy-ijtimoiy faoliyatga jalb qilish kabi choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mahallaning o‘ziga xos xarakteriga mos ravishda an‘anaviy hunarmandchilik va san’at turlari ham rivojlanmoqda. Shaxsan men ham ushbu shaharni va G‘ishtko‘prik mahallasi fuqarolari qatorida ekanligimdan faxrlanaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I. A. Karimov. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin”. Toshkent -1996.
2. 2023-yil 26-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish, mahalla “yettılıgi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish” bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilish nutqidan.
3. Muhammad Yahyoxon Dadaboyev “Xo‘qandi latif mahallalari va ko‘chalari nomlanishi tarixi”. Farg‘ona-2007.
4. T. Nuridinov, X. Sodiqov- “Mening jonajon shahrim”. Farg‘ona-2022.
5. H. Bobobekov- “Qo‘qon tarixi”. Toshkent-1996.
6. Mahallaning keksa kishilaridan va uzoq yillar ushbu mahallada istiqomat qilayotgan aholidan yozib olingan xotiralar va ma’lumotlar.